

# **BOLAJONLARGA ShODLIK ULASHIB**



## **BOLAJONLARGA ShODLIK ULASHIB**

Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati bo'yicha boshqarmasi hamda viloyat va shahar hokimligi bolalarni himoya qilish sho''basi tomonidan 1 iyun - "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan oilaviy bolalar uyi farzandlari uchun San'at saroyida bolajonlarga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida tadbir tashkil etildi.

Mazkur tadbirda viloyat Musiqali drama teatri ijodkorlari tomonidan havola etilgan bayram dasturi ularda katta taassurot qoldirdi. Teatrlashtirilgan kontsert tomosha ko'tarinki ruhda o'tdi. Aktyorlarning turli xil multfilm qahramonlarini aks etgan chiqishlari bolajonlarga zavq bag'ishladi. Shuningdek tadbir so'ngida bolajonlar uchun bayram sovg'alari ulashildi.













